

PARAZITAR KASALLIKLARGA CHALINGAN BOLALARGA STATSIONAR SHAROITLARDA TIBBIY YORDAM KO'RSATISHNI TASHKIL ETISH

Maxmudova L.B.¹

¹ Samarqand davlat yibbiyot universiteti huzuridagi L.M.Isayev nomidagi mikrobiologiya, virusologiya, yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy-tadqiqot instituti

ORGANIZATION OF INPATIENT MEDICAL CARE FOR CHILDREN WITH PARASITIC DISEASES

Makhmudova L.B.¹

¹ L.M. Isaev Research Institute of Microbiology, Virology, Infectious and Parasitic Diseases at Samarkand State Medical University

ОРГАНИЗАЦИЯ СТАЦИОНАРНОЙ МЕДИЦИНСКОЙ ПОМОЩИ ДЕТЯМ С ПАРАЗИТАРНЫМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ

Махмудова Л.Б.¹

¹ Научно-исследовательский институт микробиологии, вирусологии, инфекционных и паразитарных заболеваний имени Л.М.Исаева при Самаркандском государственном медицинском университете

https://doi.org/10.62209/SPJ/vol6_Iss1/art19

Annotatsiya. Yuqumli kasalliklarga chalingan bolalarni reabilitatsiya qilish tizimining tashkiliy tuzilmasi ko'rsatilayotgan tibbiy yordam xususiyatlarini tahlil qilish ham L.M.Isaev nomidagi mikrobiologiya, virusologiya, yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy-tadqiqot instituti klinikasi misolida amalga oshirildi. Ushbu klinika 2020 yildan beri respublikada birinchi marta yuqumli kasalliklarga chalingan bolalarni reabilitatsiya qilish asoslarini ishlab chiqayotgan tibbiy muassasadir

Kalit so'zlar: gelmintozlar, infeksiyalar, parazitlar kasalliklar, laborator diagnostika, davolash, profilaktika, reabilitatsiya.

Annotation. Analysis of the features of medical care provided by the organizational structure of the system for the rehabilitation of children with infectious diseases is also carried out. It was carried out on the example of the clinic of the Research Institute of Microbiology, virology, infectious and parasitic diseases named after Isaev. This clinic is a medical institution that has been developing the basics of rehabilitation of children with infectious diseases for the first time in the Republic since 2020.

Key words: helminthiases, infections, parasitic diseases, laboratory diagnostics, treatment, prevention, rehabilitation.

Аннотация. Также проведен анализ особенностей медицинской помощи, предоставляемой организационной структурой системы реабилитации детей с инфекционными заболеваниями было проведено на примере клиники Научно-исследовательского института микробиологии, вирусологии, инфекционных и паразитарных болезней имени Исаева. Эта клиника - медицинское учреждение, которое впервые в республике с 2020 года разрабатывает основы реабилитации детей с инфекционными заболеваниями

Ключевые слова: гельминтозы, инфекции, паразитарные болезни, лабораторная диагностика, лечение, профилактика.

Kirish. Parazitar kasallikning tarqalganlik darajasini aniqlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatidan hamda Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi L.M.Isayev nomidagi mikrobiologiya, virusologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy-tadqiqot instituti klinikasining 2004-2024-yillar uchun parazitar kasalliklar bilan kasallanish to'g'risidagi rasmiy ma'lumotlari asosida o'rganildi va tahlil qilindi. Bolalarda yuqumli kasalliklarning tarqalishi va tuzilishini baholash uchun biz bolalar populyatsiyasining umumiy va birlamchi kasallanishini (0-14 yosh va 15-17 yosh), shuningdek, respublikada yuqumli va parazitar kasalliklarning birlamchi va umumiy kasallanishini tahlil qildik, umuman 20 yil davomida dinamikada (2004-2024), shuningdek, asab tizimi kasalliklarining tarqalish xususiyatlari, bolalar tomonidan yuqadigan yuqumli kasalliklardan keyin yuzaga keladigan bolalarni reabilitatsiya qilishning eng og'ir patologiyasi sifatida, so'nggi 20 yil ichida tadqiqotning asosi bo'lgan hududlarda chuqur o'rganildi.

Shuningdek, biz Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi L.M.Isayev nomidagi mikrobiologiya, virusologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy-tadqiqot instituti klinikasidagi yuqumli kasalliklarga chalingan bolalarning kasalxonaga yotqizilishini chuqur tahlil qilish uchun doimiy usuldan foydalandik.

Parazitar kasalliklarga chalingan bolalarning oilalarini ijtimoiy xususiyatlarini o'rganish maqsadida biz tomondan ishlab chiqilgan savolnoma asosida so'rovnoma o'tkazildi hamda epidemiologik tekshiruvning operativ tahlili o'tkazildi. Savolnomada olingan javoblarning foizdagi ulushiga asoslangan holda ajratib olingan hududlardagi parazitar kasalliklar bilan kasallangan bolalarning ota-onalari va tibbiyot xodimlari parazitar kasalliklar bilan kasallangan bolalarga reabilitatsiya o'tkazish to'g'risidagi ma'lumotlari statistik usullar yordamida tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari. Ko'rsatkichlar dinamikasi tendentsiyalarini tahlil qilish uchun rasmiy statistik materiallardan keng foydalanilgan. Aholi salomatligining asosiy darajasi to'g'risida g'oyani shakllantirish uchun Sog'liqni saqlash vazirligining statistik to'plamlari, Sanepidqo'mitaning statistik

materiallari, shuningdek L.M.Isayev nomidagi mikrobiologiya, virusologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy-tadqiqot instituti klinikasida davolanib ketgan bemorlarning statistik xaritalari (F. 066/u) ishlatilgan. Jami 3740 kuzatuv birligi tahlil qilindi.

Yuqumli kasalliklarga chalingan bolalarni reabilitatsiya qilish tizimining tashkiliy tuzilmasi, moddiy-texnik va kadrlar bilan ta'minlash xususiyatlarini tahlil qilish ham L.M.Isayev nomidagi mikrobiologiya, virusologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy-tadqiqot instituti klinikasi misolida amalga oshirildi. Ushbu klinika 2020-yildan beri respublikada birinchi marta yuqumli kasalliklarga chalingan bolalarni reabilitatsiya qilish asoslarini ishlab chiqayotgan tibbiy muassasadir. Ushbu ilmiy tadqiqot 2020-yildan 2024-yilgacha o'tkazilgan. 2020-yilda yuqumli kasalliklarga chalingan bolalarni reabilitatsiya qilish uchun 12 ta o'rin-joy ochilgani hisobga olib, o'rganish yuqumli kasalliklarga chalingan bolalarni reabilitatsiya qilish va tahlil qilish uchun noyob imkoniyat yaratildi. Markazning og'ir, immun va somatik kasalliklar bilan kechadigan yuqumli kasalliklarga chalingan bolalarni tibbiy reabilitatsiya qilish sohasida amaliy sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan ilmiy ishlanmalari mahalliy yoki xorijiy analoglarga ega emas.

Bolalarda parazitar kasalliklarning kechishida organizmning mikro va makronutrient holatini o'zaro bog'liqligini tahlil qilish uchun zamonaviy klinik-laborator, instrumental, koproovoskopiya usullaridan foydalandik.

O'tkazilgan tadqiqotlar tahlilli asosida bolalarda parazitar kasallikning profilaktikasi va reabilitatsiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan dasturni ishlab chiqildi va amaliyotga taqdim etildi. Tadqiqotni amalga oshirish uchun epidemiologik usul (retrospektiv tahlil, operativ tahlil), serologik usul (IFT), molekulyar - genetik usul (PZR), koproovoskopiya usuli va statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning vazifasidan biri bo'lgan maktab o'quvchilarida gelmintozlarga qarshi o'tkaziladigan ommaviy degelmintizatsiya algoritmini takomillashtirish va tadbiiq etish maqsadida oldin ushbu hududlarda joylashgan maktab o'quvchilari parazitologik tekshiruvdan o'tkazildi. Buning uchun barcha hududlarda joylashgan maktablarning 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarining najasi

parazitar kasalliklarni aniqlash maqsadida uch marotalik koproovoskopiya usulida tekshirildi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida koproovoskopiya tekshiruv natijalari hududlardagi maktab o'quvchilari o'rtasida operativ tahlil yordamida qiyosiy o'rganildi. Shu bilan birga ushbu bolalarda ommaviy degelmintizatsiya belgilangan tartibda o'tkazildi, 1 haftadan so'ng yuqoridagi bolalarning barchasini najasi ikkinchi marotaba koproovoskopiya usulida tekshirildi hamda ommaviy degelmintizatsiyaning samaradorligi o'rganildi. klinikasida reabilitatsiya qilinayotgan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari o'rtasida ijtimoiy so'rov o'tkazish uchun foydalandik. Tadqiqot besh yil davomida o'tkazildi. Bola kasalxonadan chiqarilayotganda qog'oz anketalarini to'ldirish talab qilindi. 1170 anketa qabul qilindi.

Tadqiqot vaqtida respondentlarning aksariyati (80,5%) Samarqand viloyatida, 13,8% – boshqa viloyatida, 4,1% - Samarqand shahrida va 1,6% o'z joylarini ko'rsatmagan yashash joyi.

Reabilitatsiya tadbirlarining samaradorligi uchta yo'nalish bo'yicha baholandi: yo'nalishlari: tibbiy, ijtimoiy va iqtisodiy.

Bolalarning funksional holatidagi o'zgarishlarni baholash mutaxassislar tomonidan amalga oshirildi. Infeksiyalardan keyin bolalarni reabilitatsiya qilishning ijtimoiy samaradorligini baholash ota-onalar tomonidan bolalarning muayyan ko'nikmalarini o'zgartirishni baholash (yaxshilash, yomonlashish, barqarorlashtirish) amalga oshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Васечкина Л.И., Тюрина Л.П., Акинфиев А.В. Особенности терапии при паразитарных инвазиях у детей: научное издание //Лечащий врач. - М., 2013. - Н10. - С. 62-66.

2. Best seating condition in children with spastic cerebral palsy: One type does not fit all / M. Angsupaisal, L.J. Dijkstra, S. la Bastide-van Gemert [et al.] // Res. Dev. Disabil. – 2017. – Vol. 71. – P. 42-52

3. Саидахмедова Д.Б., Эгамбердиев О.А. Распространенность смешанных кишечных паразитарных инвазий// Терапевтический вестник Узбекистана. - Ташкент, 2013. - Н4. – С.31-36.

4. The Trunk Control Measurement Scale: reliability and discriminative validity in children and young people with neuromotor disorders / P. Marsico, E. Mitteregger, J. Balzer, H.J.A. van Hedel // Dev. Med. Child Neurol. – 2017. – Vol. 59, № 7. – P. 706-712.